

## KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA DUCH KELINADIGAN PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

Nasriddinov Rustamjon A'zamqulovich

Boyovut tumani 50 –maktab psixolog.

Karshiboyeva Lobar Baxramovna

Yangiyer shahar 7- maktab psixologi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15448709>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik yoshdagi o'quvchilar bilan ishlash jarayonida o'qituvchilar duch keladigan asosiy psixologik muammolar yoritilgan. Xususan, moslashuvda qyynalish, xavotir, tajovuzkorlik, diqqat yetishmovchiligi, o'ziga ishonchning pastligi kabi holatlar tahlil qilingan. Muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik yoshdagi o'quvchilar, psixologik muammolar, xavotir, moslashuv, xulq, e'tibor.

**Аннотация.** В статье рассматриваются основные психологические проблемы, с которыми сталкиваются учителя при работе с младшими школьниками. Анализируются причины возникновения таких трудностей, как тревожность, агрессия, неуверенность в себе, проблемы адаптации и концентрации внимания. Также даны рекомендации по их преодолению в учебно-воспитательном процессе.

**Ключевые слова:** младшие школьники, психологические проблемы, тревожность, адаптация, поведение, внимание.

**Abstract.** This article discusses the main psychological problems that teachers face when working with primary school children. It analyzes the causes of such difficulties as anxiety, aggression, low self-esteem, adaptation issues, and attention problems. The article also provides recommendations for addressing these problems in the educational process.

**Keywords:** primary school children, psychological problems, anxiety, adaptation, behavior, attention.

### Kirish

Kichik yoshdagi o'quvchilar bilan ishlash pedagogik mahorat, sabr-toqat va chuqur psixologik bilimni talab qiladi. Ushbu yosh davrida bolalar shaxs sifatida shakllana boshlaydi, ularning emotsiyal va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi tez sur'atda kechadi. Shu bois, o'qituvchilar ko'plab psixologik muammolarga duch kelishadi. Ushbu maqolada shu kabi muammolar tahlil qilinadi va ularni bartaraf etish yo'llari taklif etiladi.

### Asosiy qism

#### 1. Moslashuv muammolari

Maktabga endigina kirgan bolalar yangi muhit, tartib-qoidalar va o'qituvchi bilan tanishish davrida ko'pincha psixologik bosim ostida bo'lishadi. Ular ota-onadan ajralishdan, yangi sinfdoshlar bilan muloqot qilishdan qo'rqli shadi. Bu holat "ajralish xavotiri" (separation anxiety) deb ataladi.

#### 2. O'ziga bo'lgan ishonchning pastligi

Ba'zi o'quvchilar topshirqlarni bajara olmaslididan, xato qilishdan qo'rqli shadi. Bu holat ularning o'ziga bo'lgan ishonchini kamaytiradi va ijtimoiy faoliyatdan chetlashishiga olib keladi.

#### 3. E'tibor va konsentratsiya muammolari

Diqqatni uzoq vaqt bir narsaga jamlay olmaslik kichik yoshdagi bolalar uchun tabiiy holatdir. Biroq, bu holat kuchayganda, o‘qish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat "diqqat yetishmovchiligi va giperfaollik sindromi" (ADHD) bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

#### 4. Qo‘rquv va xavotir

Yangi darslar, baholash tizimi, imtihonlar yoki o‘qituvchining jiddiy ohangi bolalarda qo‘rquv hissini uyg‘otishi mumkin. Bu holat ularning o‘rganish motivatsiyasini pasaytiradi.

#### 5. Tajovuzkorlik va injiqlik

Ba’zan bolalar o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olmay, agressiv harakatlar yoki injiqlik bilan javob qaytaradilar. Bu holatlar oilaviy muhit, psixologik bosim yoki e’tibor yetishmovchiligi natijasi bo‘lishi mumkin.

#### 6. Ijtimoiy moslashuvdagи muammolar

Uyalchanlik, do‘stilar orttira olmaslik, guruhda ishslashda qiyonalish bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga to‘sinqlik qiladi.

#### Tavsiya va yechimlar

- Psixologik xizmatlarni mактабда faol yo‘lga qo‘yish;
- Har bir o‘quvchi bilan individual ishslash;
- Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- Ijobiy rag‘bat va quvvat beruvchi muhit yaratish;
- O‘yin, mashg‘ulot va treninglar orqali bolalarda o‘ziga ishonchni shakllantirish.

#### 1. Yosh xususiyatlariга xos psixologik muammolar

Kichik maktab yoshi (7–10 yosh) o‘quvchilari uchun quyidagi muammolar xos hisoblanadi: Adaptatsiya (moslashuv): yangi ijtimoiy muhit (sinf, mактаб, o‘qituvchi)ga moslashish jarayonida hissiy beqarorlik; Emotsional o‘zgaruvchanlik: tez ranjish, yig‘loqilik, e’tiborni boshqara lmaslik; Ijtimoiy qiyinchiliklar: do‘sit orttirishda qiyonalish, konfliktli vaziyatlar; Motivatsiya pasayishi: baho olishga emas, bilimga qiziqishning sustligi.

#### 2. Psixologik muammolar turlari

Anksiyete (xavotir) buzilishi: bola doimiy xavotirda yuradi, bu o‘quv faolligini kamaytiradi; Tajovuzkorlik: bu bola o‘ziga yoki boshqalarga nisbatan zararli xatti-harakatlar ko‘rsatadi; O‘ziga past baho berish: “men eplay olmayman”, “menga qiyin” kabi fikrlar orqali shakllanadi; Diqqat yetishmovchiligi va giperfaollik (ADHD): darsda e’tiborni jamlay olmaslik, faollikni boshqara olmaslik.

3. Sabablar  
Oilaviy muhit (beqarorlik, befarqlik, zo‘ravonlik); Noto‘g‘ri tarbiya uslublari; O‘qituvchining emotsional sovuqligi yoki haddan tashqari talabchanligi; O‘quv yuklamasining og‘irligi va stress.

#### 4. Psixologik yordam va yondashuvlar

Individual suhbatlar (psixolog bilan); Ijodiy faoliyat (rasm chizish, ertak tuzish orqali ichki holatni aniqlash); Ijtimoiy o‘yinlar (hamkorlikda ishslashni o‘rgatish); Trening va mashg‘ulotlar (moslashuv, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan).

#### 1. Oila bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tavsiyalar:

Oilaviy seminar va suhbatlar tashkil etish – ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar orqali bolalarning nutqiy rivojlanishi haqida ma'lumot erish. Ota-onalarga metodik ko‘rsatmalar tarqatish – uyda bajarilishi mumkin bo‘lgan mashqlar ro‘yxati bilan ta’minlash.

Ota-onalarni bolalar bilan uyda o‘qish va suhbat qurishga undash – ertak o‘qish, savol-javob o‘yinlari orqali bola lug‘at boyligini oshirish. Muloqot muhitini yaratishga yordam berish – oilaviy tadbirdarda bolaga fikrini erkin ifoda etish imkoniyatini yaratish.

### 2. Nutq madaniyatini rivojlantirish uchun tavsiyalar:

Nutq o‘yinlari va rolli mashg‘ulotlar – bolaning so‘z boyligini oshirish, grammatik to‘g‘ri gapirishni o‘rganishi uchun.Ona tili boyligini oshiruvchi faoliyatlar – she‘r yodlash, hikoya tuzish, ko‘rgazmalar haqida fikr bildirish.Teatr elementlaridan foydalanish – bola o‘z hiss tuyg‘ularini ifoda qilishga o‘rganadi, talaffuz aniq bo‘ladi.Nutqiy muhitni boyitish – ko‘rgazmalar, ovozli materiallar, piktogrammalar orqali bolaning til sezuvchanligini rivojlantirish.

### 3. Tarbiyachi va ota-onalar uchun umumiy tavsiyalar:

Har bir bola bilan individual yondashuv – har bir bolaning nutq rivojlanishi darajasi turlicha bo‘ladi.Ijobiy muloqot muhitini yaratish – bolaning noto‘g‘ri aytgan so‘zini tanqid qilmasdan to‘g‘ri shaklini takrorlash.Muntazam ravishda kuzatuv olib borish – bolaning nutqiy rivojlanishida o‘zgarishlar haqida ota-onalarni xabardor qilib borish.Texnologik vositalarni cheklash – ekran qarshisida ko‘p vaqt o‘tkazish bola nutqining sustlashishiga olib keladi.

### Xulosa

Kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan ishlashda psixologik muammolarni erta aniqlash va to‘g‘ri yondashuv orqali hal etish muhimdir. O‘qituvchi, psixolog va ota-onalarning birlashtirishida sa’y-harakati bolalarning to‘laqonli rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

### REFERENCES

1. Abdullayeva G. “Bola psixologiyasi”, Toshkent, 2021.
2. Vygotskiy L.S. “Psixologik rivojlanish nazariyalari”.
3. Mahkamova, M. “Maktabgacha va kichik maktab yoshi psixologiyasi”.
4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi materiallari.